Yuk ko'tarish mexanizmlarining soz holatda saqlanishiga va ulardan xavfsiz foydalanishga javobgarlik ana shu mexanizmlar ishlatiladigan korxonada bo'linmasi yoki muhandis-texnik xodimi zimmasiga yuklatiladi. Bu xodim maxsus buyruq bilan tayinlanadi.

Yuk ko'tarish mexanizmlaridan xavfsiz foydalanish uchun, ayniqsa, ularning tayanch qismlari, arqon, tros, ilgak va boshqa qismlari kattaroq mustahkam zahira bilan tayyorlanadi.

Mexanizm va tuzilmalarda ularning imkoniyatidan og'irroq yuklarni, odamlar hamda begona (og'iligi aniq bo'lmagan) yuklarni ko'tarish, nosoz yuk ko'tarish mexanizmlari va tuzilmalaridan foydalanish man etiladi.

Yoshi 18 dan kichik bo'lmagan, o'qigan, yo'l-yo'riq olgan va malaka sinovidan (attestatsiyadan) o'tgan, shuningdek, tegishli guvohnomaga ega bo'lgan kishilar yuk ko'tarish tuzilmalari hamda mexanizmlarida ishlashga ruxsat etiladi.

Yuk ko'tarish va tashish vositalarini xavfsiz ishlatishga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

a) Hamma aylanuvchi va harakatlanuvchi qismlari hamda mexanizmlari ishonchli to'siqqa ega bo'lishi;

b) Signalizatsiyasi, blokirovkali tormozlari ishonchli ishlashi kerak.

Omborxonalar va ayrim sexlardagi transportyor va konveyerlarning eng havfsiz harakat tezligi 0,2 m:s.dan oshmasligi zarur va tezlikni cheklab turish uchun, tezlik cheklagichlari bilan ta'minlanishi darkor.

Osma tashish tuzilmalari (elektr relslar, osma elektr shatakchilar, elektr poezdlar tasmali transportyorlar), odatda, ish o'rinlari hamda yo'laklar tepasida joylashtirilmasligi kerak va ular ishonchli himoya vositalari yordamida o'rnatilishi, tushib ketgan yukni tutib qola oldigan darajada mustahkam bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish korxonalarida yuklarni ortishtirish, taxlash va joylashtirish bilan bog'liq hamma yumushlar Mehnat haqidagi Konunlar asosida "Ortish-tushirish ishlari. Xavfsizlikning umumiy talablari"ga muvofiq belgilab qo'yilgan.

Ortish-tushirish ishlari ko'tarish tuzilmalaridan foydalanib bajariladigan bo'lsa, korxonada ma'muriyati ishlarning xavfsiz amalga oshirishligiga javobgar shaxsni tayinlaydi. Bu shaxs yukni ortish-tushirish va tashish vositalari hamda usullarning to'g'ri tanlanishini kuzatib turishi lozim. Bunday ishlar tajribali xodim rahbarligida olib boriladi. Bunday shaxslar "O'z davlat kontroli" tashkilotlari vakili ishtirokida imtihondan o'tkazilib, maxsus guvohnomaga ega bo'lishlari shart hisoblanadi.

Ish beruvchi (brigadir, master) yuk tushiriladigan maydonchani tayyorlaydi, yuklarni ortish-tushirish o'zida taxlash tartibi va usulini aniqlaydi, ishlarni xavfsiz

bajarish yo'llari va usullari yuzasidan yo'l- yo'riq beradi, mexanizm va kranlar bilan ta'minlaydi.

Ortish-tushirish ishlari asosan mexanizatsiyalashtirilgan usulda, ya'ni tushirgichlar yordamida, ishlar hajmi kichik bo'lganida esa kichik mexanizatsiyalar yordamida amalga oshiriladi.

-20 kg.dan og'ir yuklar uchun, shuningdek, yuklarni 3 m dan balandga ko'tarishga ortish-tushirish ishlari mexanizatsiyalashtirilgan usulda amalga oshiriladi.

-500 kg.dan og'ir yuklarni kranlar bilan ortish-tushirishga ruxsat etiladi.

-Yuklarni gorizantal yo'nalishda tashish va ortish uchunpolda yuradigan transportdan foydalaniladi, bunday transport asosan, yuklarni texnologik jarayon boshlanadigan joyga va tayyor maxsulotni omborga tashib keltirishda foydalaniladi.

Yuklarni tug'ri mahkamlash ortish-tushirish ishlarining xavfsiz bajarishda katta ahamiyatga ega.

Agar yukni ko'chirish vaqtida zanjir va arqonlarning o'z-o'zidan yechilib yoki siljib ketish ehtimoli bo'lsa, yuklarni tushib ketishi, baxtsiz hodisalar yuz berishi mumkin.

Yuk ko'tarish mashinalari saqlovchiva blokirovkalovchi tuzilmalari bilan uskunalanishi shart hisoblanadi.

Kranlarga yuk ko'tarish imkoniyatini ko'rsatuvchi belgilar, signal asboblari (qo'ng'iroq, gudok, sirena) kranlar kabinasidan tashqariga o'rnatiladi. Barcha yuk ko'tarish mashinalarida ularning eng ko'p yuklanishi, tartib raqami va navbatdagi sinovdan o'tkazilgan kuni haqida ko'rsatilishi kerak.

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida juda murakkab va ko'p tarmoqli tashkilot bo'lib, qaramog'ida katta maydonlar mavjud. Tabiiyki bunday maydonlarda xom ashyo, tayyor mahsulot va yordamchi materiallarni bir yerdan ikkinchi yerga tashish uchun xilma-xil transport vositalari ishlatiladi.

4.3. Korxonalarining yong'in va portlash xavfi bo'yicha darajalari

Ishlab chiqarish jarayonlari yong'in va portlash xavfsizligi, ularni rejalashtirishda, GOST 12.1.004.-91 "Yong'in xavfsizligi umumiy ". Umumiy

talablari va GOST 12.1.010-90 "Portlash xavfi". Umuiy qoidalariga muvofiq bo'lishi talab qilinadi.

Hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan uskuna va jihozlar, yong'in va portlab ketish jihatidan xavfsizdir. Ammo bu uskuna va jihozlar ishlab chiqarishning yong'in va portlash xavfi bo'yicha turiga mos ravishda to'g'ri tanlangandagina xavfsizlikni ta'minlay oladi.

Korxonalarining ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlatiladigan xom ashyosi, tayyorlaydigan mahsuloti va joylashgan binosining loyihasini hisobga olib yong'in chiqishga, potlashga, yong'in chiqqan taqdirda uning tarqalishiga, shuningdek, yong'in va portlashning yetkazgan asorati va qurilish meyoriy qoidalari (SNiP 2-90-81) asoslanib, xavflilik darajasi belgilanadi.

- A darajali yong'in va portlashga xavfli korxonalar. Bular suyuqlik ta'sirida havodagi kislorod bilan birikish natijasida yonishi va potlashi mumkin bo'lgan moddalar, chaqnash harorati 28° S.gacha bo'lgan suyuqlik va gazlarni portlash imkoniyatini tug'dirishi mumkin bo'lgan korxonalar bo'lib, bosim 5 KP. gacha bo'lgishi kerak.

Bu darajaga oltingugurt, uglerod, efir, aseton ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi.

- B darajali portlash va yong'iniga xavfli korxonalar. Ularga chaqnash harorati 28° S dan yuqori bo'lgan hamda ishlab chiqarish jarayonida chaqnash haroratigacha qizdirilgan suyuqliklar va changlar binoda bosim 5 KP. dan ko'proq miqdorda to'planib, portlovchi aralashma hosil qilishi mumkin bo'lgan korxonalar kiradi.

- V darajali korxonalarga yong'iniga xavfli bo'lgan, bug', harorati bo'lgan suyuqliklar, shuningdek, bir-biri bilan, havodagi kislorod suv bilan birikkan holda yonuvchi moddalar va qattiq yonuvchi jismlar bilan ish olib boradigan korxonalar kiradi.

- G darajali korxonalar, yonmaydigan jism va materiallarga, qizdirib, cho'g'lantirib va eritib ishlov berish jarayonida issiqlik, uchqun va alangalar chiqishi mumkin bo'lgan, qattiq, suyuq, va gazzimon moddalar yoqilg'i sifatida ishlatiladigan korxonalar kiradi.

- D darajali korxonalar, yonmaydigan jismlar va materiallarga sovuq ishlov beradigan korxonalar kiradi. Mashinasozlik sanoat korxonalar, qurilish sanoat korxonalar kiradi.

Yong'in va portlash darajasi korxonani loyihalash va ishga tushirish vaqtida har bir vazirlik tasdiqlagan ro'yxat bo'yicha aniqlanadi.

V. METODIK QISM.

5.1. O'quv reja va dasturni tahlilini qilish.

«Tishli g'ildiraklarga va shlitsali yuzalarga ishlov berish» mavzusi «Mashinasozlik texnologiyasi» fanidan «Metallarga ishlov berish ustasi uchun» kasb-hunar kollejlarda 2 kursa 3, 4, 5 va 6 mavsumlarda o'tiladi. Bitiruv malakaviy ishining mavzusiga mavzuga oid maxsus fan o'qituvchisining o'quv-metodik majmusini yaratish uchun quyidagi ishlarini amalda bajardik :

- Davlatr ta'lim standartini, o'quv reja va fanlar boyicha ish dasturlarini tahlil ilib chiqdik;
- Ilg'or pedagoglarning tajribasini o'rganib va ularning darslarga tayyorlanish metodikasini o'ganib chiqdik va fanlar boyicha metodik majmuallarini tahlil qildik;
- «Mashinasozlik texnologiyasi» fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligini aniqladik va yuqoridagi bajarilgan ishlarimizning natijalarini quyidagi jadvallarga kritdik.

5.2.Mavzuning perspektiv – tematik rejasi.

| № № / № | Mavzu va darslarning nomi | Soat | Dars tipi | Dars turi | Dars metodlari | Oqitishning didaktir vositalari | Adabiyotl ar |
|------------------|------------------------------|------|-----------|-----------|----------------|---------------------------------------|-----------------|
| | | | | | | | |

1 Tishli g'ildirak va shlittsali yuzalarga ishlov berish texnologiyasi 5

1 Tishli g'ildirak ishlov berish texnologiyasi 2

Yangi materiallarni bayyon qilish

Suhbat darsi,

vizual ma`ruza, blits-so`rov

Klaster, suhbat, Tushintirish,

namoish qilish

Ma'ruzalar matni,

proektor,

taqatma materiallar

Мирзаев А.А., Сотволдиев А.Э.

Машинасозлик технологияси

асослари. Укув кулланма. Фаргона, 2001.-1755 стр

Suhbat darsi,

vizual ma`ruza, blits-so`rov

Klaster, suhbat, Tushintirish,

namoish qilish

Ma'ruzalar matni,

proektor,

taqatma materiallar

Мирзаев А.А., Сотволдиев А.Э.

Машинасозлик технологияси асослари.

Укув кулланма. Фаргона, 2001.-1755 стр

1 Shlittsali yuzalarga 2
.2 ishlov berish
. texnologiyasi

Yangi materiallarni

bayyon qilish

Suhbat darsi,

vizual ma`ruza, blits-so`rov

Klaster, suhbat, Tushintirish,

namoish qilish

Ma'ruzalar matni,

proektor,

tarqatma materiallar

1. Сафаев А.А. Машинасозлик технологияси асослари.
асослари: курси бўйича “Маърузалар матни”. -
Т. Таш Т ва Е И, 2005.-83 б.

2. WWW/ zivonet

1 Tishli g`ildirak larga 1
.3 ishlov berish
. asboblarningi turlarini
o`rganish

Amaliy mashg`ulot

Suhbat darsi,

vizual ma`ruza, blits-so`rov

suhbat, Tushintirish,

namoish qilish

Tarqatma materiallar

1. Сафаев А.А. Машинасозлик технологияси асослари.
асослари: курси бўйича “Маърузалар матни”. -
Т. Таш Т ва Е И, 2005.-83 б.

2. WWW/ zivonet

5.3. Nazariy dars kospekti

MAVZU: "TISHLI G`ILDIRAKLARNI TAYYORLASH TYEXNOLOGIYASI"

Reja

1. Tishli g`ildiraklarning tasnifini
2. Tishli g`ildiraklarni tayyorlash bo'yicha texnik talablar,
3. Tishli g`ildiraklarni qo'llaniladigan materiallar va xom ashyo turlari
4. Mexanik ishlov berish texnologik jarayonining ketma-ketligi va uni bajarish tartibi

Adabiyotlar

1. Мирзаев А.А., Сотволдиев А.Э. Машинасозлик технологияси асослари. Укув кулланма. Фаргона, 2001.-95 стр

Tishli g`ildiraklarning tasnifini

Mashina va mexanizmlarda tishli g`ildiraklar eng ko'p uchraydigan detallar hisoblanadi. Tishli g`ildiraklar belgilangan uzatishlar soniga asosan bir valdan ikkinchisiga aylanma harakatni va burovchi momentni uzatish uchun xizmat qiladi. Tishli g`ildiraklar avtomobillar, traktorlar, metall kesish dastgohlarining tezliklar va uzatishlar qutilarida, reduktorlar, ko'tarish tushirish qurilmalari, nazorat asboblari, soatli mexanizmlar xamda shunga o'xshash qurilmalarda keng qo'llaniladi.

1. Tishli g`ildiraklarni tasnifini

Birinchi tur tishli g`ildiraklar bular gupchakli va gupchaksiz tsilindrik va konussimon tishli g`ildiraklar. Bu tishli g`ildiraklarning markaziy teshiklarini tuzilishi tekis, shponka uyali va shlitsali ko'rinishida bo'ladi. Tishli g`ildiraklarni

o'q bo'yicha yo'nalgan ochiq markaziy teshiklarning uzunligi uning diametriga nisbati $l/d > 1$ yaoni "vtulka" ko'rinishida bo'ladi.

Ikkinchi tur ko'p gardishli tekis shponka uyali va shlitsali markaziy teshikka ega tishli g'ildiraklar.


Uchinchi tur bir gardishli tekis, shponka uyali shlitsali markaziy teshikka ega va $l/d < 1$ yaoni "Disk" ko'rinishidagi tishli g'ildiraklar.

To'rtinchi tur mexanik ishlov berilgandan so'ng gupchak bilan yig'iladigan tsilindrik, konussimon, chervyakli tishli g'ildiraklar yoki "gardishlar".

Beshinchi tur quyruq qismiga ega (tishli val ko'rinishidagi) tsilindrik va konussimon tishli g'ildiraklar.

Ko'rib chiqilgan tishli qildiraklarning har bir turi o'zining tipik texnologik jarayonlariga ega va har biri uchun o'rnatish yuzalari mavjud.

Tishli g'ildiraklarning xizmat vazifasidan kelib chiqqan holda ularni markaziy teshiklari va tishli yuzalarini tayyorlashga alohida e'tibor haratilishi talab etiladi. Shunday qilib bu yuzalarni o'zaro joylashishining xatoligi 0,01-0,1 mm chegarasida bo'lishi kerak. Tishli g'ildiraklarni gardish qismining sirtini markaziy teshik o'qiga nisbatan perpendikulyarligi 0,05-0,1 mm bo'lishi talab etiladi. Markazi teshik IT6..IT8 kvalitet aniqligida va yuza tozaligi Ra 1,25... Ra 2,5 bo'ladi



1-rasm. Tishli g'ildiraklarning turlari.

Tishli g'ildiraklarni tayyorlash bo'yicha talablar ularning aniqlik darajasi bilan belgilanadi. Mashinasozlikda 5 dan 10 gacha aniqlik darajasiga ega bo'lgan tishli g'ildiraklar qo'llaniladi. 9 dan 10 aniqlik darajasidagilari ochiq tishli uzatmalarda qo'llanilsa 5-6 aniqlik darajasidagilar esa yuqori aniqlikdagi mexanizmlarda qo'llaniladi.

Bu tishli g'ildiraklarning tishlarini ishchi yuzalari Ra 0,63.... Ra 2,5 bo'yicha bo'ladi.

Tishli g'ildiraklar tayyorlash uchun material uzatiladigan burovchi momentning va aylanma tezlikning miqdoriga bog'liq ravishda tanlanadi. Kichik kuchlar ostida va kichik tezliklarda ishlovchi g'ildiraklar, plastmavvalar, kul rang yoki bolg'alangan cho'yanlardan toblanmagan konstruksion po'latlar 30, 35 yoki 45 lardan tayyorlanadi. Katta kuchlar taosirida va yuqori tezliklarda ishlovchi tishli ilashmalar g'ildiraklari termik ishlov berilgan po'lat 45 yoki legirlangan po'latlar 40X, 12XN3A, 18XGT va shu kabilardan tayyorlanadi.

Tishli g'ildiraklar xomashyolarning turi va tayyorlash usullari ularning materiallarining turiga va ishlab chiqarish dasturiga bog'liq bo'ladi. Cho'yandan tayyorlanadigan xomashyolar quyma bo'ladi. Tishli g'ildiraklarning o'lchamlari kichik bo'lgan holda (50 mm gacha) barcha turdagi ishlab chiqarish sharoitida xomashyo prokatdan kerakli o'lchamlarda qirqib olish usuli bilan tayyorlanadi. Donali va kichik seriyali ishlab chiqarish sharoitida o'lchamlari katta bo'lgan tishli g'ildirak xom ashyolari bog'alash mashinalarida erkin bolg'alash yo'li bilan tayyorlanadi. Kichik partiyadagi o'rtacha o'lchamlarga ega bo'lgan tishli g'ildiraklar uchun xomashyo shtamplash usullari bilan tayyorlanadi. Ko'p seriyali va yalpi ishlab chiqarish sharoitida xomashyo yopiq shtamlarda bolg'alash mashinalarida, presslarda va gorizontol bolg'alash mashinalarida tayyorlanib birdaniga markaziy teshik hosil `ilinadi.

Mexanik ishlov berish texnologik jarayonining ketma-ketligi va uni bajarish tartibi

Tishli g'ildiraklarga mexanik ishlov berish texnologik jarayonining amallarini bajarish ketma-ketligi va tartibi ularni yuqorida ko'rib chiqilgan turlarning qaysi biriga mosligiga bog'liq.

Bir va ikkinchi turdagi "vtulka" ko'rinishidagi bir va bir necha gardishli tishli g`ildiraklarni tayyorlash texnologik jarayonining ketma-ketligi qo`yidagicha:

- sirt yuzalarini qirqib ishlash va markaziy teshikka qora va toza ishlov berish;
- markaziy teshik bo'yicha o'rnatilgan holda tish ochiladigan yuzalarga va bosh`a yuzalarga ora, yarim toza ishlov berish;
- tishlarni ochish (dastlabki va oxirgi marta tishlarni qirqish, agarda aniqlik darajasi talab etsa shever yordamida ishlov berish);
- termik ishlov berish;
- qirqilgan tishlarga o'rnatilgan gholda markaziy teshikka toza ishlov berish;
- tishlarga yakunlovchi ishlov berish (bu holda tishli g`ildirak markaziy teshik bo'yicha o'rnatiladi).

Uchinchi turga xos bo'lgan "Disk" ko'rinishidagi tishli g`ildiraklarga mexanik ishlov berish ketma-ketligi yuqorida keltirilgan holda saqlanib qolsada, markaziy teshik uzunligining qisqaligini e`tiborga olib asosiy texnologik yuza vazifasini tishli g`ildirak gardishining sirti bajaradi.

"Gardish" turidagi tishli g`ildiraklarda yig`ish bazasi vazifasini pog`onali markaziy teshikning sirti va gardishni gupchak bilan biriktirish uchun xizmat g`iladigan teshiklar bajarganligi uchun ularga va shu kabi yuzalarga ishlov berish ketma-ketligi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:


- ichki yuza sirtini qirqib ishlash va shu o'rnatishda mumkin bo'lgan barcha yuzalarga ishlov berish;
- markaziy teshik va ichki sirt yuza bo'yicha o'rnatilgan holda mahkamlash teshiklariga ishlov berish;
- tishli g`ildirakni sirt yuzasi va ikkita mahkamlash teshiklari bilan o'rnatilgan holda tish qirqiladigan gardishga qora va toza ishlov berish:
- tishlarga dastlabki va oxirgi kesib ishlov berish:
- ichki sirt yuzaga toza kesib ishlov berish (tishlar bo'yicha o'rnatilgan holda);
- tishlarga yakunlovchi ishlov berish, bu holda tishli g`ildirak sirt yuzasi va ikkita mahkamlash teshiklari bo'yicha o'rnatiladi;
- "Tishli val" ko'rinishidagi tishli g`ildiraklarga maxnik ishlov berish jarayoni vallar tayyorlash texnologiyasiga mos keladi va quyidagi tartibda bo'ladi;

- sirt yuzalariga kesib ishlov berish va markaziy teshiklarni ochish;
- tashqi aylanish yuzalariga qora va toza ishlov berish;
- tishli g`ildiraklarda mavjud teshiklar, shlitsali yuzalar, shponka uyalari, rez`bali yuzalarga ishlov berish;
- tishlarni ochish;
- termik ishlov berish;
- yuqori aniqlikka ega bo`lgan pog`onalar yakunlovchi ishlov berish:
- tish yuzalariga ishlov berish.

Tsilindrik yuzalarga mexanik ishlov berish jarayonlari tokarlik guruhidagi dastgohlarda olib boriladi. Ishlab chiqarish turiga mos holda universal tokarlik - vint qirqish (donali va mayda seriyali ishlab chiqarish), tokarlik revolver va ko'p keskichli dastgohlar (seriyali ishlab chiqarish), ko'p shpindelli tokarli yarim avtomatlar (ko'p seriyali va yalpi ishlab chiqarish), sharoiti qo'llaniladi.


Tishli gildiraklarga tokarlik-revolver dastgohlarida ishlov berish ishlov berish jarayonining texnologik sozlash eskizlari.2-rasmda ko'rsatilgan. Rasmlar raqamlar bilan revolver kallagining xolatlari bo'yicha kerakli o'lchamga bo'ylama yo'nalishida xarakatlanuvchi kesuvchi asboblarni sozlash ko'rsatilgan.

Ko'ndalang yo'nalishdagi A va B sozlashlar sirt yuzalarini qirqish va faska ochish uchun ishlatiladi. Ariqlarni ochish uchun ko'ndalang supportga ho'lda xarakat beriladi (poz.4). 2-rasmda tishli g`ildirakga mexanik ishlov berishning birinchi amalsi keltirilgan. Bu amalda markaziy teshikga qora va toza (poz.3,5,6) hamda mumkin bo'lgan boshqa yuzalarga mexanik ishlov beriladi.




2-rasm. Tokarlik revolver dastgohida tishli g`ildirakka mexanik ishlov berish

Bir shpindelli ko'p keskichli tokarlik yarim avtomatida tishli g'ildirakka yo'nib ishlov berish texnologik sozlashlari 3-rasmda ko'rsatilgan. Bu texnologik jarayonning ikkinchi bosqich amalsi, chunki tishli g'ildirak ishlov berilgan markaziy teshik bo'yicha o'rnatiladi. Keskichli tokarlik yarim avtomati oldingi bo'ylama va ketingi ko'ndalang supportlarga ega. Bo'ylama va ko'ndalang supportlarda keskichlarni o'zaro birgalikda xarakat qilish g'ildirakni barcha tashqi yuzalariga ishlov berish imkoniyatini yaratadi.



3-rasm. Bir shpindelli ko'p keskichli tokarlik yarim avtomatida tishli g'ildirakka mexanik ishlov berish


Tishli g'ildiraklarga tokarlik ishlov berish ish unumdorligini oshirish masadida ko'p shpindelli yarim avtomatlardan foydalaniladi. Bu dastgohlarda har bir xolat uchun o'zining kesuvchi asboblari texnologik sozlangan bo'ladi. Holatlardan biri xomashyoni o'rnatish (tayyor Detalning olish) uchun xizmat qiladi. Har bir xolatda mexanik ishlov berishni bir vaqtda olib borilishi va xolatlardan faqat o'rnatish uchun xizmat qilishi yordamchi va'itni asosiy ishlov berish vaqti bilan qoplash imkoniyatini beradi. Dastgoh stolining aylanma xarakati tufayli xomashyo xolatlari birin-ketin o'tadi. Xuddi shunday dastgohlarda tishli g'ildirakka mexanik ishlov berish texnologik jarayonning dastlabki davri 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Olti shpindelli tokarlik yarim avtomat dastgohida tishli g`ildirakka mexanik ishlov berish

Texnologik jarayonning birinchi va ikkinchi davrlarini birlashtirish uchun sakkiz shpindelli tokarlik yarim avtomatlaridan foydalaniladi (5-rasm). Bunday dastgoh stolining juft raqamli xolatlarida tishli g`ildirak xomashyosini ishlov berilmagan yuzasi bo'yicha o'rnatish masadida uch mushtchali patronlar qo'llaniladi.

Dastgohning toq raamli xolatlarida esa kengayuvchi opravka o'rnatilgan bo'lib u ishlov berilgan markaziy teshik bo'yicha Detalning o'rnatishga xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, dastgoh stoli birdaniga ikkita xolatga buriladi. Toq raqamli xolatdagi kesuvchi asboblari tishli g`ildirak xomashyosining sirt yuzalariga va markaziy teshikka mexanik ishlov berish uchun texnologik sozlanadi.



5-rasm. Sakkiz shpindelli tokarlik yarim avtomat dastgohida tishli g`ildirakka mexanik ishlov berish

Toq raamli xolatlarni o'tib bo'lgandan so'ng xomashyo juft raqamli xolatlar uchun qayta o'rnatiladi. Bu holda o'rnatish yuzalari almashadi. Juft raqamli xolatlaridagi kesuvchi asboblar tishli g`ildiraklarning olgan tashqi yuzalariga mexanik ishlov berish uchun texnologik sozlangan bo'ladi.

Tishli g`ildiraklarga tish ochish usuli tishning shakliga (to'g'ri tishli, qiyshi` tishli, vintsimon va hokazo) ishlab chiqarish dasturiga va tishni aniqlik darajasiga bog`li` holda tanlanadi. Donali ishlab chi`arish va taomirlash sharoitida tsilindsimon to'g'ri va qiyshi tishli g`ildiraklarga tish ochish uchun gorizonta - frezerlash dastgohlari qo'llaniladi. Dastgoh stoliga bo'luvchi mexanizm o'rnatiladi. Bu holda tish ochish uchun disksimon modulli frezerlar ishlatiladi. Ishlov berilayotgan tishli g`ildiraklarni tishlari sonidan kelib chiqib bir modulli frezalar yig`masi qo'llaniladi.


Seriyali va yalpi ishlab chi`arish sharoitida maxsus tish frezerlash dastgohlaridan foydalaniladi. Tish frezerlash dastgohlarida modulli chervyakli frezerlar ishlatiladi. Bu frezerlar sirpanib-dumalash xarakati natijasida tishlarni hosil qiladi. Bundan tashkari dolbyak bilan taominlangan ilgari lanma-qaytma

xarakat qiluvchi tishni dolbyaklash (o'yib ishlash) dastgohlari keng qo'llaniladi. Bu dastgohlarda kesuvchi asbob-dolbyak aylanma xarakat qam qiladi. Bu usul ikkinchi turga oid bo'lgan ko'p gardishli tishli g'ildiraklarga tish ochish uchun yagona usul hisoblanadi.

Bo'luvchi diametriga mos ravishda va uning ortishi bilan tishlar orasidagi chuqurliklari kengayib boruvchi konussimon tishli g'ildiraklarni tishlari ikki marta ishlov berish yo'li tayyorlanadi. Birinchi o'tishda tish shakliga qarab shaklli disksimon freza yordamida tishlar orasidagi chuqurlik hosil qilinadi va ikkinchi o'tish tishni randalash dastgohlarida bajariladi. Bu dastgohlarda modulli (tish moduliga mos) ikkita randalash keskichini bir-biriga nisbatan maolom burchak ostida o'rnatib sirpanib-dumalash xarakati qo'shib olib boriladi va natijada tishlar orasidagi chuqurlik hosil qilinadi. Egri tishli konussimon tishli g'ildiraklarni tishlari keskichlar kallagi yordamida maxsus dastgohlarda hosil qilinadi.

Tishning ishchi yuzalariga yakunlovchi ishlov berish tishlarini sheverlash dastgohlarida olib boriladi. Bundan maqsad tishni yuza tozaligini aniqlik darajasini orttirish va tishni shaklini to'g'rilashdan iborat. Termik ishlov berilgandan so'ng membranali rolikli patronlarda tishni yuzasi bo'yicha o'rnatilgan holda tishli g'ildiraklarni markaziy teshigi ichki yuzalari jilvirlanadi. Keyin esa markaziy teshik bo'yicha o'rnatilgan holda tishni ishchi yuzalari turli xil usullar yordamida jilvirlanadi.

Tishlarni shevinglash 2 xil usulda bajariladi, birinchi usul shever deb nomlangan maxsus sheverlar va ikkinchi usulda maxsus shever reyka yordamida ishlov beriladi. Sheverlar yonlarida 0,8 mm chuqurlikdagi chuqurchalari bo'lgan kesuvchi tishli g'ildirakdan iborat bo'ladi. Shevenglashni umumiy sxemasi 6 rasmda keltirilgan.



6-rasm Diskli shever bilan tsilindrik tishli g`ildirakni shevinglash:
 a) umumiy ko'rinish; b) va v) bir o'tishli shevinglash sxemasi

Bunda ishlov beriladigan tishli g`ildirak opravkada (6 a- rasm) dastgoh stoli markazlariga joylashtiriladi. Shever tishli g`ildirakni ustida 15 burchak ostida g`ildirak bilan vintli juft xosil qilganday holda joylashadi. Aylantiriladigan shever ishlov beriladigan tishli g`ildirakni aylantiradi. Bunda u o'q bo'yicha ilgari lanma - aytma harakat qiladi. Bu vaqtda shever tishni butun uzunligi bo'yicha qirindi qirib oladi. Shever stolni xar bir xarakatiga mos holda vertikal harakat ham qiladi. Stolni xar bir xarakati oxirida shever teskari aylanib tishni teskari (orqa) tomoniga ishlov beradi.

Nazorat savollari

1. Tishli g`ildiraklarning qaysi turlarini bilasiz?
2. Tishli g`ildiraklarni tayyorlashda ularga anday texnik talablar qo'yiladi?
3. Tish g`ildiraklari qaysi materiallardan tayyorlanadi va ular uchun xomashyo turlarini sanab bering?
4. Tishli g`ildiraklarni turlari bo'yicha mexanik ishlov be-rish ketma-ketligini keltirib o'ting.
5. Tishli g`ildiraklarni qaysi usullari yordamida nazorat qilinadi?

Tayanch iboralar:

tokarlik-revolver dastgohlari; bir shpindelli ko'p keskichli tokarlik yarim avtomat; olti shpindelli tokarlik yarim avtomat dastgohi; sakkiz shpindelli tokarlik yarim avtomat dastgohi; g'ildirakni shevinglash

Amaliy (tajriba) mashg'ulotini konspekti

Mavzu: "Tish kesuvchi asboblari bilan tanishish"


Ishni bajarishdan masad - tish kesuvchi asboblari bilan tanishish

Material - texnik jihozlanishi :


1. Kirmakli freza.
2. Moduli freza.
3. Diskli freza.

NAZARIY QISMI


Agar aylanayotgan kirmak freza tegishli tezlikda aylanayotgan tayyorlanmaga botib kirsam, tayyorlanmada evol'venta profili, ammo botiqlari yoy bo'ylab joylashgan tishlar hosil bo'ladi. Freza tayyorlama o'qi bo'ylab qo'shimcha harakatga keltirilsa, bu qo'shimcha harakat bo'ylama yoki vertikal surish harakati bo'ladi, tish frezalash jarayoni hosil qilingan bo'ladi.




1- rasm. Kirmakli freza



2-rasm. Tayyorlanmaga kirmakli frezani o`yib kiritish bilan tish hosil qilish sxemasi.



3-rasm. G`ildirak tishlarini barmoqsimon va modulli frezalar bilan hosil qilish



4 - rasm. Tishli g`ildiraklarni frezalash

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Tajriba mashg`ulotining mavzu, maqsadi va materialte[nik jihozlanishi bilan tanishish.
2. Tajriba mashg`ulotining nafariy qismi bilan tnishish.
3. Tajriba mashg`ulotini bajarish uchun o'qituvchidan tish qirqish asboblarning chizmasi olinadi va quyidagicha tahlil qilinadi:
 - 2.1. Asbobning nomi bilan tanishish.
 - 2.2. Asbobning vazifasini o`rganish.

2.3. Asbobning materialini aniqlash.

2.4. Detalning texnik chizmasida qo'yilgan texnik shartlarini tahlil qilish.

2.6. Tish qirqish asboblarning namunalri bilan tanishish va har qaysiga tavsiya berish.

XULOSA

Men o‘zimning “1325F30 rusumli tokarlik revol`ver dastgohining «Yulduzcha» detaliga mexanik ishlov berish texnologiyasini va mavzuga oid maxsus fan o‘qituvchisining o‘quv-metodik majmusini yaratish” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishimda “Yulduzcha” detalini tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqdim. Detalni tayyorlash uchun uning konstruksiyasi, xizmat vazifasi, chizmasini va texnologiyasozligi tahlili qildim. Detalning tayyorlash uchun ishlab chiqarishni tashkil etish tipini aniqladim. Detal uchun tayyorlanma tanladim va uni asoslab berdim. Mexanik ishlov berish marshrutini ishlab chiqdim. Texnologik operatsiyalarni loyihalab, quyimlar va kesish rejimlarini hisoblashni, texnologik jihozlar va ularni moslamalarni tanlashni, tayyor detal o‘lchamlarini nazorat qilish usullarini o‘rgandim. Dastgohlarda ishlash jarayonidagi texnika xavfsizligi va yong‘inga qarshi kurash qoidalari bilan tanishdim va ularni “Yulduzcha” detalini tayyorlash jarayoni uchun tadbiq etdim.

Kasb – hunar kollejlarda o‘qitiladigan maxsus fanlarni o‘qitish uslubiyotini mukammal o‘rganish maqsadida, o‘zimni mavzuimga oid maxsus fan o‘qituvchisining o‘quv – metodik majmuasini ishlab chiqdim va uni pedagogik amaliyot davrida sinab ko‘rdim.

Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilish, ko‘proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg‘or tajribalardan saboq berishning turli yo‘llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR VA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
2. "Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. – 2001. – 3 – 15 b.
3. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. – 2001. – 17-52 b.
4. Abdullaev F.S., Zagidullin R.R. Bolg'alash shtamplash jihozlari. O'quv qo'llanma. ToshDTU. Toshkent 1996 y.
5. Bazarov B.M Osnovi texnologii mashinostroeniya.-M: "Mashinostroenie", 2005 g.-736 s.
6. Baydullaev A. Texnologik tizim elementlarini matematik modellashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 1996 y.
7. Bartashevich A.A. Materialovedenie: Izd. "Feniks" Rostov-na-Donu, 2004 g. -352s.
8. Bursev i dr. Texnologiya mashinostroeniya v 2 – x tomax. M., MGTU im.N. Ye. Bauman, 1998 g.-563 s.
9. Bolotin X.L. Stanochnie prispobleniya. – M.: Mashinostroenie, 1993 g. – 276 s.
10. Jalilov H.I. Metallarni kesish nazariyasi asoslari,metall kesuvchi stanoklar va asboblar. T.: "Talqin"2006 u.-175b.
11. Kostromin X.L., Novikov M.P. Osnovi konstruirovaniya stanochnix prispobleniy. – M.: "Mashinostroenie", 1996 g.– 340 s.
12. Molchanov G.N, Smetankin K.I, "Stanki s ChPU", T.: "O'qituvchi", 1993 g.
13. Mirboboyev V.A. "Konstruksion materiallar texnologiyasi". T. "O'qituvchi". 2004 y.
14. Mirboboev V.A. Metallarni bosim bilan bilan ishlash texnologiyasi. T. "ILM ZIYO", 2006 y.
15. Mirboboev V. A. Metallshunoslik asoslari.T. "ILM ZIYO", 2006 y.

16. Nosirov I. Materialshunoslik. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. T.: “O‘zbekiston” 2001 y. - 352 b.
17. Omirov A.Y. va Qaymov A.X. Mashinasozlik texnologiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2003 y., 384 b.
18. Osnovi avtomatizirovannogo proektirovaniya. M.: Izdatelstvo MGTU imeni N.E Baumana, 2002 g.-333 s.
19. Peregudov L.V., Xashimov A.N., Shalagurov I.K., Neregudov S.L. Avtomatlashtirilgan korxonalar stanoklari. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2001 y.-496s.
20. Proektirovanie metallorejuşix stankov i stanochnix sistem. V 3-x t. T.37 Pod red. A.S.Pronikova.-M.:Izd. MVTU im.N.E.Baumana i MGGU “Stankin”. 2000 g.-584s
21. Suslov A.G. Texnologiya mashinostroeniya. – M: “Mashinostroenie”, 2004 g.-400s.
22. Fayzimatov B.N., Mirzaev A.A. Materiallarni kesib ishlash asoslari.- Farg‘ona: “Texnika”, 2003 y.-194 b.
23. Fayziev R.R. Metrologiya, o‘zaro almashuvchanlik, standartlashtirish. T.: “Mehnat”, 2005. 358 b.
24. Fedin Ye.I., Kuznesov V.P., Yamnikov A.S. Proektirovanie sxem texnologicheskix naladok na operasii mexanicheskoy obrabotki rezaniem.-Tula: Izd. TulGTU, 2005g.-116s.
25. Qayumov A., Kabulov M. Mexanika – yiguv sexlarini loyihalash. T.- “Fan va texnologiya”-2007 u. 210 b.
26. www.Ziyo.net
27. www.tdpu.Uz
28. www.pedagog.Uz
29. www.edu.Uz

Mundarija

| | |
|---|--|
| KIRISH | |
| I. TEXNOLOGIK QISMI | |
| 1.1. Detalning konstruksiyasi va xizmat vazifasi..... | |
| 1.2. Chizmaning texnik nazorati..... | |
| 1.3. Detalning texnologiyasozligi tahlili..... | |
| 1.4. Ishlab chiqarishni tashkil etish tipini aniqlash..... | |
| 1.5. Detal uchun tayyorlanma tanlash va asoslash..... | |
| 1.6. Mexanik ishlov berish marshrutini ishlab chiqish..... | |
| 1.7. Texnologik operatsiyalarni loyihalash..... | |
| 1.8. Quyimlarni hisoblash..... | |
| 1.9. Kesish rejimlarini hisoblash..... | |
| 1.10. Texnologik jihozlarni tanlash..... | |
| 1.11. Texnik me'yorlash..... | |
| II. KONSTRUKTORLIK QISMI | |
| 2.1. Dastgoh moslamasini ishlab chiqish va hisoblash..... | |
| 2.2. Nazorat asbobini loyihalash..... | |
| 2.3. Maxsus kesish asbobini loyihalash..... | |
| III. TASHKILiy QISM | |
| 3.1. Jihozlarning miqdorini aniqlash..... | |
| IV. MEHNAT MUHOFAZASI VA EKOLOGIYA QISMI | |
| 4.1. Texnologik jarayonlarni xavfsizligini ta'minlovchi vositalar..... | |
| 4.2. Yuk ko'tarish va tashish ishlarida xavfsizlikni ta'minlash..... | |
| 4.3. Korxonalarining yong'in va portlash xavfi bo'yicha darajalari..... | |
| V. METODIK QISM | |
| 5.1. O'quv reja va dasturni tahlilini qilish..... | |
| 5.2. Mavzuning perspektiv – tematik rejasi..... | |
| 5.3. Nazariy dars kospekti..... | |
| XULOSA | |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR | |
| ILOVALAR | |